SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI	860
<i>Mirzokirov Mirramizjon Mirxoshim o'g'li</i>	
ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	867
<i>Урунова Мафтуна Гайратовна</i>	
АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИКИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	871
<i>Некова Фатима Борисовна</i>	
MINTAQA SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA KLASTERLASH VA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING AHAMIYATI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	876
<i>Abdinazarov Xusan Shaymanovich</i>	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI TIZIMINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY TASHKILY-IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH	882
<i>Kayumov Z.O.</i>	
O'ZBEKISTONDA VALYUTA KURSINING SHAKLLANISHI VA UNING INFLATSIYA DARAJASIGA TA'SIRI MEKANIZMI.....	887
<i>Matrizayev Zafar Gulimboy o'g'li, Viqorjon Bahriddinov Akbar o'g'li</i>	
МЕХНАТ BOZORINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	892
<i>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURIZMDA MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	897
<i>Mahmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li</i>	
НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	901
<i>Мирзаев Кулмамат Джанзакович</i>	



ELEKTR UZILISHLARINING HUDUDIIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	906
<i>Oltiboyeva Feruza Ulug'bek qizi</i>	
DAVLAT TRANSPORT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	911
<i>Uktamov Sarvar Atxam o'g'li</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИНСТРУМЕНТЫ ПОДДЕРЖКИ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В СТРАНАХ ЕС, США И ЯПОНИИ	915
<i>Газизова Эльмира Хамидовна, Мелибаева Гульнора Ачилевна</i>	
SANOATNI HUDUDIIY RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH OMILLARI	921
<i>O'zmanov Ixtiyor Ibragim o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	926
<i>Sherov Sanjar Radjabovich</i>	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI STRATEGIYALAR ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	932
<i>Umurov Jasurbek Jamil o'g'li</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	936
<i>Raxmonov Abduxalil Rasulovich</i>	
INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI.....	940
<i>Maxkamova Kamola</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA).....	944
<i>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</i>	
UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	950
<i>Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	956
<i>Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA 2026-2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	963
<i>Ismailov Timur Atabayevich</i>	
SAVDO LIBERALIZATSIYASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIGA TA'SIRI	969
<i>Sardorjon Maxmudov Sobirjon ug'li</i>	
MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINING UY XO'JALIKLARI FAROVONLIGI VA HUDUDIIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EMPIRIK TAHLIL QILISH.....	977
<i>Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna</i>	
FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR.....	982
<i>Ergashev Muhibbek Aslamovich</i>	
O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	988
<i>Rajabova Umida Umurzoqovna</i>	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)	995
<i>Отамуродова Дилдора Абдуқримовна</i>	
THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT	1001
<i>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li</i>	



TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1010
Erkayeva Barno Abduraximovna	
GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1015
Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	1020
Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев	
ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN	1024
Axmadova Iroda Muzaffar kizi	
DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS.....	1030
Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna	
KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI.....	1035
Butanova Dilnoza Rustamovna	
MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA.....	1042
Rahimova Gulnoza	
SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI.....	1052
Akbarova Maloxat Atabekovna	
UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH.....	1056
Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna	
FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	1062
Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT	1069
Erkinov Farrux Rustam o'g'li	
AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1075
Nazarova Rushana Ravshan qizi	



cheklash, davlat budjetini to'ldirish va iqtisodiyotda muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, aksiz solig'i xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning rentabelligi va investitsion faolligini tartibga solishda muhim dastak sifatida xizmat qiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda soliq siyosatini liberallashtirish, tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga moslashish jarayonlari aksiz solig'i amaliyotini tubdan qayta ko'rib chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, aksizosti tovarlar ro'yxatini optimallashtirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish, soliq bazasini aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish va soliq nazoratini kuchaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, amaldagi aksiz solig'i ma'muriyatchiligi tizimida aniqlangan ayrim jihatlar uni yanada takomillashtirish uchun muhim zamin bo'lib xizmat qilmoqda, jumladan, soliq yukini muvozanatlashtirish, hisoblash usullarini soddalashtirish, noqonuniy aylanmani qisqartirish, shuningdek, soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi axborot almashinuvini yanada samarali tashkil etish yo'nalishlarida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar aksiz solig'i yig'iluvchanligi darajasini oshirishga va uning fiskal samaradorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi aksiz solig'i ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati, uning budjet daromadlaridagi o'rnini, shuningdek, zamonaviy sharoitda soliq siyosati doirasida aksiz solig'i samaradorligini oshirish yo'nalishlari kompleks tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aksiz solig'i turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida bo'lgan qator davlatlarda bilvosita soliqqa tortishning samarali shakli sifatida e'tirof etiladi.

Hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda aksiz solig'ining zarurligini asoslashning turlicha yondashuvlari va variantlari uchraydi. Jumladan, O.R. Tegetayeva fikricha, «aksiz solig'i bilvosita soliq tarkibiga kirsada, hozirda uning asosiy ahamiyati aholi ijtimoiy iste'molining holati va istiqbolini baholash mezonini ekanligidir»¹.

Xorijiy olim M.V. Kashirinaning fikricha, aksiz solig'i tizimi murakkab hisoblanadi. Aksiz solig'i va alkogolli mahsulotlarning muomalasini nazorat qilish muammosi mavjud, chunki ularni sotish hajmi noqonuniy ishlab chiqarishni rivojlantirish ko'lamiga to'g'ri keladi va katta miqdordagi mablag'lar davlat budjetidan tashqarida muomalada bo'ladi. Muammoning yechimi alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarishda nazoratni kuchaytirish va aksiz tizimida yetarli soliq solinadigan bazani yaratish uchun shart-sharoit yaratish bo'lishi mumkin².

D.E. Giles va L.M. Tedds tomonidan kontrabanda faoliyati soliq organlaridan soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy yoki noqonuniy, bozor yoki bozordan tashqari barcha operatsiyalar sifatida ta'riflangan. Bilvosita soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash ko'pincha kontrabanda, ayniqsa bojxona tariflari bo'yicha jinoyatlar bilan bog'liq. Kontrabanda jinoyatlari embargo, mahsulot sifati va kvotalar kabi pul va pul bo'lmagan daromadlarga ta'sir qiladi³.

Delipalla 2009-yilda aksiz solig'ini bilvosita soliqlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida tavsiflaydi. 1976-yildagi Aksiz to'g'risidagi qonunning 6-bo'limiga ko'ra, import qilinadigan tovarlarga solinadigan aksiz solig'i mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga ham tatbiq etiladi. Ushbu soliq iste'mol tuzilmasini o'zgartirish yoki ijtimoiy muhandislik (social engineering) jarayonlarini shakllantirish mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi. Aksiz to'g'risidagi qonunga muvofiq majburiy aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar qatoriga alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, sigaretalar, to'rt g'ildirakli va ko'p maqsadli avtomobillar hamda o'yin kartalari kiradi⁴.

A. Toshqulov va S. Xudoyqulovlar o'z tadqiqotlarida aksiz solig'ining ta'siri xususida quyidagilarni ta'kidlashadi: «Aksiz solig'iga tortiladigan mahsulotlarning tannarxiga soliq stavkalarining ta'siri orqali aksizosti shaklidagi ayrim tovarlarni iste'mol jarayoni tartibga solinadi»⁵.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganishda umumilmiy va iqtisodiy

1. Тегетаева О.Р. К проблемам реформы акцизного налогообложения // Налоговый менеджмент. – 2016. – № 6.-с.23-27.
2. Каширина М.В. Проблемы функционирования акцизной системы и регулирования рынка алкогольной продукции // Экономические исследования. – 2019. – №3. – С. 45–52.
3. Giles D.E., Tedds L.M. Tax evasion and its consequences: illegal and legal dimensions of underground economy transactions // Journal of Public Economics. – 2002. – Vol. 84(2). – P. 161–192.
4. Delipalla S. Taxation and economic welfare: the role of excise taxes in indirect taxation systems // Public Finance Review. – 2009. – Vol. 37(2). – P. 123–145.
5. A.Toshqulov, S.Xudoyqulov. Soliq nazariyasi. Darslik. – T.: "History and page", 2022. 368-bet



tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali aksiz solig'ining fiskal va tartibga solish funksiyalari yaxlit holda tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyotini boshqarish samarali tadbirlariga yangicha yondashuv shunda namoyon bo'ladiki, unda O'zbekiston Respublikasida davlat soliq siyosatining konseptual asoslari doirasida rivojlanish istiqbollarini inobatga oluvchi aksiz solig'i amaliyotini kompleks, yaxlit va tizimli tarzda o'rganish va uning bosh prizmasida "davlat fiskal maqsadlari va aksiz solig'i funksiyalari to'liq amal qilishi"ni ta'minlash yotadi.

Mazkur holatni inobatga olgan holda, aksiz solig'i amaliyotini boshqarish samarali tadbirlariga kreativ yondashuv vazifalari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- yangi sharoitlarda soliq munosabatlarini tashkil etishning yangi talablari asosida "aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti samaradorligi mezonlari va ko'rsatkichlari" tushunchasi mazmuniga tizimli yondashuvga asoslangan yangi ta'rif berish;
- soliq amaliyoti tadqiqi asosida, aksizosti tovarlarni soliqqa tortishning samarali mexanizmini shakllantirishning tizimli muammolarini aniqlash va ularni hal etishga oid takliflar tizimini tavsiya etish;
- soliq bazasini kengaytirish va soliq to'lovchilar moliyaviy imkoniyatlari tizimidagi hozirgi zamon o'zgarishlarini hisobga olgan holda aksizosti tovarlarni soliqqa tortishning samarali mexanizmi asosida ushbu soliqning fiskal bazadagi ishtirokini kompleks baholash uslubiyotini taklif etish;
- davlat soliq siyosatining konseptual asoslari doirasida rivojlanish istiqbollarini inobatga oluvchi aksiz solig'i amaliyotida "davlat fiskal maqsadlari va aksiz solig'i funksiyalari to'liq amal qilishi"ni ta'minlash zarurligini ilmiy asoslash;
- O'zbekiston Respublikasida aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlari yuzasidan kompleks tadbirlar tizimini ilmiy asoslab berish.

Ma'lumki, aksiz solig'ining ahamiyati ikki xil xususiyatga ega. Aksiz solig'ining ahamiyatini bir tomondan, budjet manfaatlari, ikkinchi tomondan esa xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki soliq to'lovchilar manfaatlari nuqtayi nazaridan tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Aksiz solig'i nafaqat fiskal jihatdan, balki xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki soliq to'lovchilarning manfaatlari nuqtayi nazaridan ham ahamiyatga egadir. Bu bilvosita soliqlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar rentabelligini tartibga solishdagi roli orqali namoyon bo'ladi. Aksiz solig'i xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki soliq to'lovchilarning rentabellik darajasini tartibga solishda muhim dastak bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki soliq to'lovchilar uchun aksiz solig'ining ahamiyati bu soliqlarni undirish jarayonida soliq yukining ma'lum bir qismi ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga o'tkazilishi orqali ham namoyon bo'ladi.

Aksiz solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, birinchidan, aksiz solig'ining funksiyasi to'liq saqlanib qolingani, chunki iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga mansub korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan aksizosti tovarlar bo'yicha cheklangan miqdorda imtiyozlar joriy qilingan; ikkinchidan, aksiz solig'i, asosan, ijtimoiy zararli, ikkinchi darajali iste'mol qilinadigan hamda shohona buyumlarga nisbatan yuqori belgilangan.

Bundan xulosa shuki, aksiz solig'i to'liq fiskal funksiyani bajaradi hamda ijtimoiy zararli mahsulotlar iste'molini cheklashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashda soliq siyosati samarali tadbirlarining, soliq dastaklari va rag'batlarining, imtiyoz va preferensiyalar orqali soliq to'lovchilar ichki va istiqboldagi imkoniyatlarini mustahkamlashning ahamiyati kattadir. Soliq hisobini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad – korxonalar yuritadigan hisob muammolarini yanada yengillashtirish va soddalashtirishdir. Korxonalarining hisob muammolarini yengillashtirilishi va soddalashtirilishi, oqibat natijada uning moliyasi sog'lomligini ta'minlashda va rivojlanish asoslarining barqarorlashuvida muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan bir qatorda, korxonalar va tashkilotlarning soliqlar bo'yicha budjet bilan hisoblashlari, ularning hisobi, tahlili va nazorati hamda huquqiy me'yorlarini takomillashtirish hozirgi kundagi dolzarb masala hisoblanadi.

Aksiz solig'i korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim, chunki O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan aksiz solig'ini iste'molchilardan olib budjetga o'tkazish majburiyati korxonalariga yuklatilgan.

Aksiz solig'ini budjetga to'lash muddati ayrim hollarda soliqqa tortiladigan mahsulotni sotish muddatidan oldinroq to'g'ri kelmoqda. Soliq hisobini yuritish sharoitida hisoblash usulining qo'llanilishi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. Hisoblash usulida mahsulotni sotish kuni deb pul mablag'larining hisob raqamiga tushishi emas, balki tovarlarni yuklab jo'natilgan kun hisobga olinadi va korxonalar mahsulotni sotishdan yalpi tushum tushmaganligidan qat'i nazar, aksiz solig'ini budjetga to'lashi shart bo'ladi.



Aksiz solig'ining hisobini takomillashtirishda, bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobining mamlakatimizda foydalanilmayotgan tamoyillaridan biri — "ijroning kassa usuli tamoyili"ni joriy qilish lozim⁶.

Ijroning kassa usuli qo'llanilganda aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitoblar va aksiz solig'ining to'lanishi pul mablag'larining hisob raqamiga kelib tushishi orqali amalga oshiriladi, bu, o'z navbatida, boqimanda summalarining paydo bo'lishini bartaraf etadi va aksizosti tovarlarni sotuvchi korxonadan davlat budjetiga keladigan mablag'lar ustidan nazoratni «yengillashtiradi». Shuningdek, korxonaning aktivlari, passivlari, o'z sarmoyasi, daromadlari, xarajatlari, xo'jalik operatsiyalari va buxgalteriya hisobida bu harakatlar yuzasidan pul mablag'lari yoki ekvivalentlari olingan yoxud to'langan paytda aks ettiriladi hamda shu sharoitda daromad va xarajatlar tan olinadi.

Shuning uchun ham aksiz solig'i bo'yicha budjetga tushumlarning to'liq bo'lishini ta'minlash hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni osonlashtirish maqsadida aksizosti mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va bu masalaga qiziqish bildiruvchi organlar tomonidan quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

1. Aksiz solig'iga tegishli hujjatlarda sotib olinayotgan aksizosti tovarlar bo'yicha oldindan to'lovlar majburiy tarzda amalga oshirilishini ko'rsatgan holda ijroning kassa usuliga o'tish lozim. Bunga asosan aksizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi korxonada o'zining hisob raqamiga kelib tushgan haqiqiy mablag'larga asosan aksiz solig'ini aniqlaydi va o'z vaqtida budjetga o'tkazib beradi. Bu korxonada boqimanda summalarining shakllanishining oldini oladi.

2. Sotuvchi korxonadan xarid qilingan mahsulot uchun pul mablag'larini uning bankdagi hisob raqamiga o'tkazib berishda xaridorning to'lov topshiriqnomasida alohida ko'rsatish yo'li bilan aksiz solig'i summasini ushlab turish zarur. Bu, o'z navbatida, soliq to'lovchi korxonada va soliq organlari o'rtasidagi hisob-kitoblarni osonlashtiradi va soliqning budjetga o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlaydi hamda soliqni to'lamaganlik uchun boqimanda va penyalari paydo bo'lishidan ogohlantiradi.

Har qanday mamlakatda soliqlarni amalda qo'llashda ularning stavkasini iloji boricha soliq to'lovchilarning imkoniyatlariga moslagan holda belgilash asosiy vazifa hisoblanadi. Aynan soliq stavkasi soliqning og'ir yoki imkoniyatga mos ekanligini belgilab beradi. Soliq stavkasining yuqoriligi soliq to'lovchilarda norozilik kayfiyatini paydo qilishi mumkin. Natijada, mamlakatda soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, daromadlarni yashirish hamda xufyona tadbirkorlikning keng quloqchilik yozishiga, fiskal vazifalar ijrosiga salbiy ta'sir etadi va iqtisodiyotning rivojlanishiga to'siq bo'ladi.

Soliq stavkalarining yuqori qo'llanilishi, ayniqsa, bilvosita soliqlarda murakkab ahvolni yuzaga keltirishi mumkin. Aksiz solig'ining yuqori stavkasini qo'llash sharoitida aholining sotib olish qobiliyati pasayadi va buning natijasida aksizosti tovar ishlab chiqaruvchilar uchun sotish bozori torayib boradi. Garchi ishlab chiqaruvchilar past foydani ko'zlab mahsulot chiqarsalar ham, yuqori stavkali aksiz solig'ining qo'llanilishi ularning mahsulotlari tez sotilishiga imkon bermaydi, chunki bu sotib oluvchilarning imkoniyatlari chegaralanganligi bilan bog'liqdir. Shu sababdan, bizning fikrimizcha, aksiz solig'ini ba'zi iste'mol tovarlariga nisbatan pasaytirilgan holda qo'llash maqsadga muvofiq.

Noqonuniy faoliyatning oldini olish va iste'molchilar sog'lig'ini kafolatlash maqsadida alkogol va tamaki mahsulotlariga aksiz markalari qo'llanilgan. Bugungi kunda aksiz solig'i bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish maqsadida alkogol va tamaki mahsulotlarini respublikamiz hududiga noqonuniy olib kirilishi va xufyona ishlab chiqarishning oldini olish maqsadida vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Zero, hozirgi kunda fiskal baza shakllanishi ahamiyati va istiqboldagi barqarorligi uchun soliq to'lovchilarning soliqlar bo'yicha to'lov intizomiga rioya etishlarining muhimligini, bu sohada to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlashda davlat vakolatli organlari faoliyati ta'sirchanligi va natijaviyligini oshirish ahamiyati o'sdi.

O'zbekiston Respublikasida davlat soliq siyosatining konseptual asoslari doirasida rivojlanish istiqbollari inobatga oluvchi aksiz solig'i amaliyotini kompleks, yaxlit va tizimli tarzda o'rganish va uning bosh prizmasida «davlat fiskal maqsadlari va aksiz solig'i funksiyalari to'liq amal qilishi»ni ta'minlash yotadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish maqsadida aksiz solig'i zamonaviy ma'muriyatchiligi samarali vosita va usullarining to'liq amal qilishiga imkoniyat yaratuvchi soliq organlari va aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti kontragentlarining funksiyalari va ular bilan o'zaro hamkorlikning funksional modeli" soliq munosabatlari ishtirokchilari muloqotining yangi tipiga, soliq xizmati ko'rsatishning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilishi zarur. Bu sohada

6 Яковлева Н.В. Акциз и фискальная монополия. История возникновения и перспективы применения. -4-изд. М.: Спутник +, 2020.-314с



amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlar tarkibida quyidagilar ham inobatga olinishi darkor:

- soliq to'lovchilarga axborot xizmatlari ko'rsatish bo'yicha jarayonlarni metodologik ta'minlash;
- barcha kanallar va resurslar bo'yicha soliq to'lovchilarga interaktiv va axborot xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini yaxshilash;
- soliq to'lovchining talabi va kutishi to'g'risidagi axborotlar tahlili asosida servis xizmatlarining samaradorligi va sifatini nazorat qiluvchi monitoring tizimini joriy etish;
- soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligi, sudga qadar tadbirlar, sud qarorlari va hukmlari, ularning ijrosi tafsilotlariga oid soliq maslahatlari berib borish;
- soliq amaliyoti va soliq qonunchiligi yangiliklarini uzluksiz tarzda muhokama qilib borish;
- soliq organlari faoliyatining moliyaviy ma'lumotlari ochiqligi va foydalanishga ruxsat etilishi shaffofligini oshirish;
- davlat-xususiy hamkorlik huquqi asosida xususiy biznes bilan hamkorlikda soliq xizmatlarini rivojlantirish;
- soliq inspektorlarining soliqlar tushumini yig'ish bo'yicha yanada samaraliroq ishlashiga erishish;
- soliqlar va soliq to'lovchilar bo'yicha aniq axborot olish;
- mavjud axborotni himoyalash.

Umuman, "AOTlarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish maqsadida aksiz solig'i zamonaviy ma'muriyatchiligi samarali vosita va usullarining to'liq amal qilishiga imkoniyat yaratuvchi soliq organlari va aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti kontragentlarining funksiyalari va ular bilan o'zaro hamkorlikning funksional modeli"ning strategik maqsadi – mazkur soliq zimmasidagi barcha vazifalar ijrosini ta'minlashdan iborat. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Aksiz soliqqa tortiladigan mahsulotlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish hamda texnologik va iste'mol tarkibi o'zgarishiga mos ravishda yangi mahsulot turlarini (masalan, elektron nikotin yetkazib berish tizimlari va ayrim qayta ishlangan mahsulotlar) soliq bazasiga kiritish maqsadga muvofiq.

2. Aksiz stavkalarini belgilashda yagona yondashuvdan voz kechib, mahsulotning zarar darajasi, bozor xususiyati va import ulushini hisobga olgan holda differensial stavkalar tizimini takomillashtirish zarur.

3. Aksiz to'lanadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan boshlab yakuniy iste'molchigacha bo'lgan jarayonni to'liq elektron kuzatuv tizimi (markirovka, EHF va real vaqt monitoringi) orqali qamrab olish soliq bazasining yashirin qismini kamaytiradi.

4. Maydoncha tekshiruvlarini rejalashtirishda oldindan xabardor qilish amaliyotini bosqichma-bosqich kamaytirib, risk darajasiga asoslangan selektiv nazorat mexanizmini joriy etish fiskal intizomni kuchaytiradi.

5. Budjet rejalashtirishda aksiz tushumlari bo'yicha ekonometrik modellar va ssenariyli prognozlash tizimlaridan foydalanish fiskal barqarorlikni oshiradi hamda tushumlar realligini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi // URL: <https://lex.uz/docs/-4674902>
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti. <https://www.imv.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti. <https://www.soliq.uz>
4. Тегетаева О.Р. К проблемам реформы акцизного налогообложения// Налоговый менеджмент. – 2016. – № 6.-с.23-27.
5. Каширина М.В. Проблемы функционирования акцизной системы и регулирования рынка алкогольной продукции // Экономические исследования. – 2019. – №3. – С. 45–52.
6. A.Toshqulov, S.Xudoyqulov. Soliq nazariyasi. Darslik. – T.: "History and page", 2022. 368 bet.
7. Giles D.E., Tedds L.M. Tax evasion and its consequences: illegal and legal dimensions of underground economy transactions // Journal of Public Economics. – 2002. – Vol. 84(2). – P. 161–192.
8. Delipalla S. Taxation and economic welfare: the role of excise taxes in indirect taxation systems // Public Finance Review. – 2009. – Vol. 37(2). – P. 123–145.
9. Яковлева Н.В. Акциз и фискальная монополия. История возникновения и перспективы применения. -4-изд. М.: Спутник +, 2020. – 314с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>